


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat
ta'lim yo'nalishining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“O‘zavtosanoat” AJ

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “___” _____ dagi ___ – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
4.	Dual ta’lim bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.....	8
5.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

60711400 – Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60711400 - Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Transport vositalarini loyihalash, ishlab chiqarish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va diagnostika qilish, sinash va ekspluatatsiya qilish hamda ularga ishlatiladigan materiallardan samarali foydalanish bilan bog‘liq kompleks masalalar va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda monitoring qilishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida **muhandis-mexanik**.

60711400 - Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

muhandislik va loyiha-konstruktorlik faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

foydalanish-servis faoliyati;

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

axborot-tahliliy faoliyat.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60711400 – Transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Muhandislik va loyiha-konstruktorlik faoliyatida:

transport vositalari muhandisligi sohasida bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

transport vositalari qismlari namunalarini eksperimental tadqiq qilish va o'lchash vositalari hamda metodlarini tanlash, konstruktiv, muhandislik va texnik-iqtisodiy hisob usullarini ishlab chiqish, mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

transport vositalari qismlari va detallari va yig'ma birliklari loyihasini ishlab chiqish qobiliyatlari;

transport vositalarini diagnostikalash, ularga texnik xizmatlarini ko'rsatish va ta'mirlash qobiliyatlari;

loiyhaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

transport vositalari ishchi organlari va detallarining parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyati;

muhandislik va loyiha-konstruktorlik faoliyati davomida axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini sohaga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

transport vositalaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar mexanizmlarini ishlab chiqish va monitoring qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqqan holda ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish jarayonlarini baholash va nazorat qilish;

ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish jarayonlarida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;

kasbga oid muammolarning yechimlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

olib boriladigan faoliyat bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarilishini nazorat qilish hamda amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

eksperimental tadqiqot metodlarini tanlash, konstruktiv, muhandislik va texnik-iqtisodiy hisob usullarini ishlab chiqish, mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Foydalanish-servis faoliyatida:

muhandislik ishi ta'lim sohasiga tegishli avtomobil muhandisligi, traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari, transport vositalariga xizmat ko'rsatish, ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari, temir yo'l transporti, avtomobil servisi kabi tarmoqlarda mavjud obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar, vositalardan foydalanish hamda transport vositalarini ekspluatatsiyasi, diagnostikasi, ularga texnik va servis xizmatini ko'rsatish va ta'mirlash, sinash va boshqa muhandislik ishlarini samarali tashkil etish hamda xizmat sifatini ta'minlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

respublika va xorijda chop etiladigan transport vositalarini loyihalash, sinash, ekspluatatsiya qilish, ularga xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalaridan foydalanish;

muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy manbalarda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish va tahlil etish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib, faoliyat obyektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;

muhandislik ishi sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, transport vositalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;

ilmiy asoslangan ma'lumotlardan muhandislik soha tarmoqlarida samarali foydalanish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari va vositalaridan foydalanish;

loyihalar samaradorligini baholashda tahliliy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

loyihalash, ekspluatatsiya qilish, sinash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq jarayonlarni nazorat qilishda ishtirok etish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

transport vositalarini loyihalash, ekspluatatsiya qilish, sinash, ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

transport vositalarini loyihalash va ishlab chiqish, ulardan foydalanish, sinash, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash samaradorligini baholash, tejamkorlik choralarni ishlab chiqish va ularni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

transport vositalaridan foydalanish davrida aniqlangan muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek ularning takrorlanishini oldini olish choralarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha uchinchi bosqich oltinchi semestrda 4 haftalik va to'rtinchi bosqichning sakkizinchi semestrda 15 haftalik uzluksiz malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	Majburiy fanlar				
1.01	O*RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM1104	Kimyo	120	4	1
1.04	XT11308	Xorijiy til	240	8	1,3
1.05	FIZ11210	Fizika	300	10	1,2
1.06	OMI12314	Oliy matematika	420	14	1,2,3
1.07	O*EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.09	MKG1204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	MS1304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.11	TMCE1504	Tannarx muhandisligi (Cost engineering)	120	4	5
1.12	FAL1604	Falsafa	120	4	6
1.13	EKO1604	Ekologiya	120	4	6
1.14	HFX1704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.15	MEX1234518	Mexanika (NM, MQ, MMN, MD)	540	18	2,3,4,5
1.16	Ter1304	Termodinamika	120	4	3
1.17	M1304	Materialshunoslik	120	4	3
Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	YK1304	Yo'nalishga kirish	120	4	3
1.19	KL1306	Kompyuterda loyihalash	180	6	3
1.20	TQXML1456717	Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini loyihalash	510	17	4, 5, 6, 7
1.21	TQXMICHJ14508	Traktorlar va qishloq xo'jalik mashinasozligida ishlab chiqarish jarayonlari	240	8	4, 5
1.22	TQXMABT1604	Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarini avtomatik boshqaruv tizimlari	120	4	6
1.23	TVSPA1704	Transport vositalarini sinash va puxtaligi asoslari	120	4	7
2.00	Tanlov fanlari		1770	59	4-7
2.00	Tanlov fanlari		1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik			
Ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	MIMOK1304	Muhandislar uchun ilmiy mashinalarni o'rganishga kirish	120	4	3
1.19	KTYQMEJ1306	Ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari elektr jihozlari	180	6	3
1.20	QM1456717	Qurilish mashinalari	510	17	4, 5, 6, 7
1.21	KTYQMF14508	Ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari foydalanish	240	8	4, 5
1.22	YQYQMGT1604	Yer qazish va yo'l qurilish mashinalari gidravlik tizimlari	120	4	6
1.23	MD1704	Mashina dinamikasi	120	4	7
2.00	Tanlov fanlari		1770	59	4-7
2.00	Tanlov fanlari		1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (Ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari bo'yicha)			
Avtomobil transporti bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	AK13410	Avtomobillar konstruksiyasi	300	10	3,4
1.20	ATKLJ1678	Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash va jihozlash	240	8	6,7
1.21	AEJ1405	Avtomobillarining elektr tizimlari	150	5	4
1.22	ATES16712	Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi va servisi	360	12	6,7

1.23	ASD1604	Avtomobil sinovlari va diagnostikasi	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (avtomobil transporti bo'yicha)			
Avtomobil muhandisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	AMK1304	Avtomobil muhandisligiga kirish	120	4	3
1.19	AK13410	Avtomobil konstruksiyasi	300	10	3,4
1.20	EGTV1406	Elektromobillar va gibrid transport vositalari	180	6	4
1.21	AN14508	Avtomobil nazariyasi	240	8	4,5
1.22	AETE16710	Avtomobil elektr tizimlari va elektronikasi	300	10	6,7
1.23	QLM1705	Qayta loyihalash muhandisligi (Reverse engineering)	150	5	7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-loyihachi (avtomobil muhandisligi bo'yicha)			
Transport intellektual tizimlari muhandisligi bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	TIT13410	Transportda intellektual tizimlar	300	10	3,4
1.20	STR16708	Shahar transportini rejalashtirish va muhandisligi	240	8	6,7
1.21	AK1405	Avtomobil konstruksiyasi	150	5	4
1.22	THMS16712	Transport harakatini modellash va simulyatsiyasi	360	12	6,7
1.23	ATT1604	Avtomobil transportida telematika	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-loyihachi (transport intellektual tizimlari bo'yicha)			
Avtomobil texnologiyasi bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	AN13410	Avtomobil nazariyasi	300	10	3,4
1.20	ASTT1678	Avtomobil sanoati tendensiyalari va texnologiyalari	240	8	6,7
1.21	AE1405	Avtomobil elektronikasi	150	5	4
1.22	ATXKT16712	Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va tekshirish	360	12	6,7
1.23	ASD1604	Avtomobil sinovlari va diagnostikasi	120	4	6
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (avtomobil texnologiyasi bo'yicha)			
Temir yo'l transporti lokomotivlar bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	LTL13410	Lokomotivlarning tuzilishi va loyihalashtirilishi	300	10	3,4
1.20	LTD16708	Lokomotivlarning texnik diagnostikasi	240	8	6,7
1.21	LTXKA1505	Lokomotivlarga texnik xizmat ko'rsatish asoslari	150	5	5
1.22	LTT16710	Lokomotivlarni ta'mirlash texnologiyasi	300	10	6,7
1.23	PTA1706	Poyezdlarni tortish asoslari	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (temir yo'l transporti lokomotivlar bo'yicha)			
Elektr transporti bo'yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	EHTMQT13410	Elektr harakat tarkiblari mexanik qismining tuzilishi	300	10	3,4
1.20	ICHJTQ16708	Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish	240	8	6,7
1.21	ETA1506	Elektr tortish asoslari	150	5	5
1.22	ETAB16710	Elektr harakat tarkiblari boshqaruv tizimlari	300	10	6,7
1.23	ETTTI1706	Elektr transportini texnik taftish va ishonchliligi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7

Kvalifikatsiya		Muhandis-elektromexanik (elektr transporti bo’yicha)			
Metropolitan bo’yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	MHTMQT13410	Metropolitan harakat tarkiblari mexanik qismining tuzilishi	300	10	3,4
1.20	ICHJTQ16708	Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish	240	8	6,7
1.21	ETA1505	Elektr tortish asoslari	150	5	5
1.22	MHTBT16710	Metropolitan harakat tarkiblari boshqaruv tizimlari	300	10	6,7
1.23	ETTTI1706	Elektr transportini texnik taftish va ishonchliligi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-elektromexanik (metropolitan bo’yicha)			
Temir yo’l transporti vagonlar bo’yicha majburiy fanlar					
1.18	EE1304	Elektrotexnika va elektronika	120	4	3
1.19	VTL134512	Vagonlarni tuzilishi va loyihalashtirish	360	12	3,4,5
1.20	VTXKA14508	Vagonlarga texnik xizmat ko’rsatish asoslari	240	8	4,5
1.21	VICHTT16711	Vagonlarni ishlab chiqarish va ta’mirlash texnologiyasi	330	11	6,7
1.22	VEJ15608	Vagonlarning elektr jihozlari	240	8	5,6
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (temir yo’l transporti vagonlar bo’yicha)			
Transport vositalariga xizmat ko’rsatish bo’yicha majburiy fanlar					
1.18	YK1304	Yo’nalishga kirish	120	4	3
1.19	AVT13410	Avtotransport vositalarining tuzilishi	300	10	3,4
1.20	ATM14508	Avtomobil tizimlari muhandisligi	240	8	4,5
1.21	IVTXKM15608	Ishonchlilik va texnik xizmat ko’rsatish muhandisligi	240	8	5,6
1.22	XKSB16709	Xizmat ko’rsatishda sifatni boshqarish	270	9	6,7
1.23	T1704	Tribotexnika	120	4	7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
2.00		Tanlov fanlari	1770	59	4-7
Kvalifikatsiya		Muhandis-mexanik (transport vositalariga xizmat ko’rsatish bo’yicha)			
		Jami:	6180	206	
		Malakaviy amaliyot	1020	34	(6,8)
		HAMMASI	7200	240	

5. Dual ta’lim bo’yicha o’qitishga qo’yiladigan talablar.

Dual ta’lim kadrlar iste’molchilarning talablaridan kelib chiqqan holda kerakli amaliy bilim va ko’nikmalarni egallashlari uchun ishlab chiqarish korxonalarida ta’lim jarayoni tashkil etiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, konsalting, traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari, avtomobil muhandisligi, transport vositalari, ko'tarish-tashish, yo'l qurilish mashinalari, temir yo'l transporti, avtomobil servisi, jarayonlar, tizimlar, jihozlar, vositalardan foydalanish, transport vositalari ekspluatatsiyasi, diagnostikasi, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, sinash, loyiha, pedagogik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik ta'minot.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor [Signature] akad. S.M.Turabdjano

202_ yil " _ " _

"O'zavtosanoat" AJ

Boshqaruv raisi o'rinbosari [Signature] PhD. F.R.Turayev

202_ yil " _ " _



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor [Signature] M.Boltabayev

202_ yil " _ " _

M.O'.



"AGRIXIM" MChJ

Direktor [Signature] A.Yo'ldoshev

202_ yil " _ " _

M.O'.



"Gaz dvigatellari" MChJ

Direktori [Signature] B.Vasidov

202_ yil " _ " _

M.O'.

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor [Signature] O.Abduraxmanov

M.O'.




"PIT STOP MOTORS" MChJ

Direktori [Signature] A.Tadjibayev

202_ yil " _ " _

M.O'.



"Toshkent traktor zavodi" MChJ

Direktor [Signature] A.Muhiddinov

M.O'.

202_ yil " _ " _



[Handwritten signature]

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy
ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “PIT STOP MOTORS” MChJ direktori A.Tadjibayev, Toshkent davlat transport universiteti rektori prof. O.Q.Abduraxmonov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori akad. S.M.Turabdjano**v** birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“PIT STOP MOTORS” MChJ
direktori


A.A. Tadjibayev

Toshkent davlat transport universiteti
rektori

O.Q. Abdurahmonov

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti rektori

S.M. Turabdjanov****



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqilgan 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli magistrLAR tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo’yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o’quv rejasiga

TAQRIZ

“Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv rejasini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to’g’risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o’zlashtirishi, amaliyotlarni o’tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko’nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o’quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg’unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrLarning fanlarni o’zlashtirish jarayonida tajriba, ko’nikmalar hamda tasavvurga ega bo’lish, qo’yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to’g’ri ko’rsatilgan. Malaka talablari va o’quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o’rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda

zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg’ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta’lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavriat tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent davlat transport
universiteti rektori, professor**



Abduraxmonov O.Q.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqilgan 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo’yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o’quv rejasiga

TAQRIZ

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o’quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo’yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo’yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta’minlangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste’molchilari bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60711400 – Transport vositalari muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

“PIT STOP MOTORS” MChJ
direktori



A.A. Tadjibayev